



JANUBIY KOREYA TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR

Tohirov Asilbek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0001-4143-7351

tokhirovasilbek153@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning turizm infratuzilmasini rivojlantirishdagi ilg'or tajribasi o'rganilib, uning O'zbekiston sharoitiga mos barqaror yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Koreya Respublikasida davlat va xususiy sektor hamkorligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda sayyohlik hududlarini tizimli rivojlantirish kabi omillar asosiy e'tiborga olingan. Mazkur tajribani O'zbekistonga tatbiq etish orqali mamlakatimizda turizm sohasining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga erishish mumkinligi asoslab beriladi. Maqola yakunida O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar hamda zamonaviy infratuzilmaviy yondashuvlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasini rivojlantirish, barqaror turizm, Janubiy Koreya tajribasini o'rganish, O'zbekiston turizm siyosati, davlat-xususiy sheriklik modeli, raqamli texnologiyalarni joriy etish, yashil infratuzilma, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari.

ПОДХОДЫ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ЮЖНОЙ КОРЕИ

Тохиров Асилбек

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. В данной статье рассматривается передовой опыт Южной Кореи в развитии туристической инфраструктуры и анализируются устойчивые подходы, применимые к условиям Узбекистана. В ходе исследования основное внимание уделено таким аспектам, как государственно-частное партнерство, внедрение цифровых технологий, обеспечение экологической устойчивости и системное развитие туристических зон. Доказывается, что адаптация данных практик может обеспечить долгосрочное и устойчивое развитие туристической отрасли в Узбекистане. В заключении статьи представлены практические рекомендации и современные инфраструктурные подходы для Узбекистана.

Ключевые слова: развитие туристической инфраструктуры, устойчивый туризм, опыт Южной Кореи, туристическая политика Узбекистана, модель государственно-частного партнёрства, внедрение цифровых технологий, зелёная инфраструктура, современные управленческие подходы.

APPROACHES TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN BASED ON SOUTH KOREA'S EXPERIENCE

Tokhirov Asilbek

Tashkent Kimyo International University

Abstract. *This article explores South Korea's advanced experience in developing tourism infrastructure and analyzes its potential sustainable applications in the context of Uzbekistan. The research focuses on key aspects such as public-private partnerships, the implementation of digital technologies, ensuring environmental sustainability, and systematic development of tourist destinations in South Korea. It is argued that adapting these practices to Uzbekistan's conditions could lead to long-term and sustainable growth in the national tourism sector. The article concludes with practical recommendations and modern infrastructural approaches for Uzbekistan.*

Keywords: *development of tourism infrastructure, sustainable tourism, South Korea's experience, Uzbekistan's tourism policy, public-private partnership model, implementation of digital technologies, green infrastructure, modern management approaches.*

Kirish.

Bugungi kunda turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki xalqaro hamkorlik, madaniyatlararo almashinuv va hududiy rivojlanishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishi mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirishda, investitsion jozibadorligini kuchaytirishda va sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston turizm salohiyatini ro'yobga chiqarishda so'nggi yillarda tizimli islohotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, zamonaviy infratuzilma, raqamli texnologiyalar va ekologik barqarorlikka asoslangan yondashuvlar hanuz dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, Janubiy Koreyaning turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi tajribasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur mamlakatda davlat-xususiy sheriklik modeli, "aqlli turizm" konsepsiyasi, yashil infratuzilma va raqamli innovatsiyalarni joriy etish orqali turizm sohasi barqaror va samarali tarzda rivojlanmoqda.

Ushbu maqolada Janubiy Koreya tajribasi tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish uchun qanday zamonaviy va amaliy yondashuvlarni qo'llash mumkinligi ilmiy asosda yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuning nazariy asoslarini yoritishda turizm infratuzilmasining mohiyati, rivojlanish bosqichlari va barqarorlik tamoyillariga oid ilmiy manbalar muhim o'rin egallaydi. Xususan, J. Tribe (2016) tomonidan ilgari surilgan turizm tizimining kompleks yondashuvi, infratuzilmaning iqtisodiy va ijtimoiy komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilgan. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida infratuzilmaviy loyihalarning samaradorligini baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi esa Bramwell va Lane (2011) tadqiqotlarida turizm kontekstida atrof-muhit, iqtisodiy foyda va mahalliy aholi farovonligini uyg'unlashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Ayniqsa, yashil infratuzilma va ekologik javobgarlik tamoyillari Janubiy Koreya tajribasi bilan bevosita bog'liq.

Janubiy Koreyaning turizm strategiyalari bo'yicha Koreya Turizm Tashkiloti va Janubiy Koreya Madaniyat, sport va turizm vazirligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar muhim amaliy manba hisoblanadi. Ularda davlat-xususiy sheriklik, raqamli transformatsiya, hududiy klasterlar va xorijiy sayyohlar oqimini boshqarish bo'yicha ilg'or yondashuvlar o'z aksini topgan (KCTI, 2023).

O'zbekiston bo'yicha esa, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasining turizmni rivojlantirishga oid hujjatlari, xususan, 2019-yildagi "Turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror, sohaga bo'lgan davlat e'tiborining ortganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Mahmudov (2020) va Karimov (2021) kabi mahalliy olimlarning ilmiy maqolalari, O'zbekistonda turizm infratuzilmasining holati va istiqbollari tahlil qilishda foydali bo'ldi. Mavjud adabiyotlar mavzuni har tomonlama yoritish imkonini beradi. Chet el va mahalliy manbalarni uyg'unlashtirish orqali O'zbekistonda turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishi uchun zamonaviy va ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashda Janubiy Koreya tajribasini tahlil qilish asosiy ilmiy yo'nalish sifatida belgilandi. Shunga muvofiq, metodologik asos sifatida kompleks va qiyosiy tahlil yondashuvlari tanlandi.

Birinchidan, **deskriptiv (ta'riflovchi) metod** yordamida O'zbekiston va Janubiy Koreyada turizm infratuzilmasining mavjud holati, rivojlanish yo'nalishlari va institutsional mexanizmlari o'rganildi. Ushbu yondashuv mamlakatlar o'rtasidagi asosiy o'xshashliklar va farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, **qiyosiy tahlil (comparative analysis)** usuli orqali Janubiy Koreyaning ilg'or amaliyotlari O'zbekiston kontekstiga moslashtirib baholandi. Xususan, davlat-xususiy sheriklik modeli, raqamli infratuzilmaning joriy etilishi, hududiy klasterlashtirish va yashil texnologiyalar kabi komponentlar alohida o'rganildi.

Uchinchidan, **sifatli (qualitative) tahlil** usullaridan foydalangan holda rasmiy hukumat hujjatlari, xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari (UNWTO, OECD, KTO), ilmiy maqolalar va ekspert intervyulari asosida chuqur tahlil olib borildi. Shuningdek, mahalliy sharoitda bu yondashuvlarning tatbiq etilishi bilan bog'liq imkoniyatlar va cheklovlar ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, **normativ-huquqiy tahlil** orqali O'zbekiston va Janubiy Koreyadagi turizmni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi o'rganilib, ularning infratuzilmaviy siyosatlariga ta'siri tahlil qilindi.

Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va amaliy qiymatini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijalar esa maqola yakunida amaliy tavsiyalar shaklida bayon etiladi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonning turizm infratuzilmasi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning barqarorligi, texnologik yangilanishi va ekologik yondashuvlar joriy etilishi hanuz dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Tadqiqot davomida Janubiy Koreya tajribasining qator jihatlari O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish mumkinligi aniqlandi.

Birinchidan, **davlat-xususiy sheriklik** modelining samaradorligi Janubiy Koreyada amaliy misollarda o'z isbotini topgan. Transport va turizm infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy sektorning faol ishtiroki byudjet yukini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qilgan. O'zbekistonda esa bu model bo'yicha huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, investorlar uchun xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitni shakllantirish lozim.

Ikkinchidan, **raqamli texnologiyalar asosidagi "aqlli turizm" infratuzilmasi** Koreyada turizm xizmatlarining interaktiv, tezkor va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Virtual gidlar, mobil ilovalar, raqamli xaritalar va sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar orqali turistlar tajribasi sezilarli darajada oshadi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bu kabi yondashuvlarni joriy etish real imkoniyatlar yaratmoqda.

Uchinchidan, **yashil infratuzilma va ekologik barqarorlik** Koreyada turizmni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mehmonxonalar va sayyohlik zonalari ekologik sertifikatlar asosida faoliyat yuritadi, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni boshqarish tizimlari keng joriy etilgan. O'zbekistonda esa ekoturizm salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, ekologik standartlar bo'yicha yagona nazorat tizimi hali to'liq shakllanmagan.



1-rasm. O'zbekiston va Janubiy Koreya turizm infratuzilmasi qiyosiy tahlili

Manba: Korea Tourism Organization and Uzbektourism organization rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Yashil (Janubiy Koreya): barcha yo'nalishlarda yuqori 100% ball bilan oldinda (Vizalar siyosatida 80%), bu Koreyaning ilg'or infratuzilma yondashuvini ko'rsatadi.


Ko'k (O'zbekiston): ayrim yo'nalishlarda (davlat-xususiy sheriklik, aqlii turizm, raqamli platformalar) 60% darajasida rivojlangan bo'lsa, yashil infratuzilma, Hududiy klasterlar, Startup ekotizimi, Vizalar siyosati kabi yo'nalishlarda 40% darajasida, bu sohalarida kuchli islohotlar va investitsiya talab qilinishini bildiradi.

To'rtinchidan, **hududiy turizm klasterlari** Koreyada mintaqaviy turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Har bir hudud o'zining tarixiy, madaniy yoki tabiiy xususiyatlari asosida turizmga ixtisoslashtirilgan. O'zbekistonda ham Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda bu modelni sinov tariqasida joriy qilish orqali klaster yondashuvining natijadorligini oshirish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Janubiy Koreya tajribasida asosiy e'tibor tizimlilikka, innovatsiyaga va barqarorlik tamoyillariga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida bu yondashuvlarni moslashtirib, milliy resurslar va ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshirish orqali turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

O'zbekiston hukumati 2024–2025-yillarda turizm infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan bir qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. 2024-yil 18-iyulda qabul qilingan Prezident farmoni (PF-102-son) doirasida kichik biznesga tayyor joylarni qurib taklif qilish tizimi joriy etildi. Bu chora hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan. Shuningdek, 2024-yil 5-dekabrda e'lon qilingan Prezident qarori (PQ-424-son) asosida turistik-rekreasion zonalarni tashkil etish va xalqaro umummavsumiy kurortlarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. Bu tashabbuslar turizm sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga, mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreya 2025-yilda 18,5 million xorijiy sayyohni kutib olishni maqsad qilgan. Bu 2024-yilga nisbatan 13% o'sishni anglatadi. Davlat turizmni jonlantirish uchun K-madaniyat, wellness va boshqa mavzuli sayohatlarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, 2025-yilning uchinchi choragidan boshlab Xitoy fuqarolariga vizasiz kirishni taqdim etish rejalashtirilgan, bu esa turizmni rag'batlantirishga xizmat qiladi. (2-rasm)



2-rasm. Janubiy Koreyaga xorijiy sayyohlar oqimi (2024-2025-yillar)

Manba: Korea Tourism Organization rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Ushbu diagrammada Janubiy Koreyada 2024-yildan 2025-yilga o'tishda xorijiy sayyohlar sonining 13% ga o'sishi aniq ko'rsatilgan — bu o'sishga K-madaniyat, "wellness" turlari va Xitoy fuqarolari uchun vizasiz rejim kabi omillar sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda Janubiy Koreya turizm sektori innovatsion startaplar orqali sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. 2025-yilda o'tkazilgan navbatdagi turizm startaplari seminari ham bu boradagi dolzarb masalalarni yoritib berdi. Tadbir davomida ishtirokchilar xalqaro bozorlarga muvaffaqiyatli chiqish uchun startaplar oldida turgan asosiy infratuzilmaviy va institutsional to'siqlarni ta'kidlashdi.

Xususan, kontentni **mahalliyashtirish, ko'p tilli xizmatlarni yo'lga qo'yish, xalqaro to'lov tizimlariga moslashish va mahalliy tarmoq ulanishlarini yaxshilash** zarurligi qayd etildi. Tadbir muhokamasida "Travolution" kompaniyasi (Travolution Inc. Janubiy Koreyada joylashgan zamonaviy traveltech (sayohat texnologiyalari) kompaniyasi bo'lib, u sayohat xizmatlarini raqamlashtirish va global miqyosga kengaytirish orqali sayyohlik sohasidagi startaplar va agentliklar uchun innovatsion yechimlar taklif etadi.) bosh direktori Bae In-ho tomonidan aytilganidek, "ichki xarita va to'lov tizimlarining jahon standartlaridan yiroqligi xorijlik sayyohlar uchun xizmat ko'rsatishni qiyinlashtirmoqda". Uning fikricha, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun "asosiy infratuzilmani xalqarolashtirish" dolzarb vazifadir (platum.kr, n.d.).

Shu bilan birga, "All My Tour" kompaniyasi rahbari Yeong-gyu (2024) "Google xaritasi" xizmatlarining Koreyada cheklanganligi sababli xizmat ko'rsatish sifati pasaymoqda" degan fikrni bildirdi. Bunday texnik va infratuzilmaviy cheklovlar nafaqat iste'molchilarning xizmatdan qoniqishini kamaytiradi, balki startaplarning raqobatbardoshligini ham pasaytiradi.

Turizm startaplarining barqaror rivojlanishi uchun davlat tomonidan ko'mak zarurligi alohida e'tirof etildi. Bu borada Koreya Turizm Tashkiloti, Seul shahri va Pusan Siti hokimiyatlari tomonidan **tijoratlashtirish fondlari, murabbiylik dasturlari va xalqaro kengayishni qo'llab-quvvatlash loyihalari** amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, tashkil topganidan so'ng ilk 3 yil ichida 70 ta startapga har biriga **o'rtacha 54 milliondan 80 million vongacha** moliyaviy qo'llab-quvvatlash ajratilishi rejalashtirilgan (KTO, 2024).

“R&One” kompaniyasi rahbari Yong-geun (2025) “Turizm startaplari uchun venchur (Venchur (inglizcha: venture) — bu iqtisodiy riskga asoslangan, yuqori daromad olish ehtimoli mavjud, lekin bir vaqtning oʻzida yoʻqotish xavfi ham yuqori boʻlgan biznes faoliyatidir. Bu soʻz koʻpincha “venchur kapitali” (venture capital) yoki “venchur loyihasi” kabi birikmalarda ishlatiladi.) kapitalini jalb etish va eskirgan qoidalarni isloh qilish orqali innovatsion ekotizim yaratish zarur”ligini taʼkidladi. U, shuningdek, xorijlik sayyohlar ichki xizmatlardan hech qanday byurokratik yoki texnik toʻsiqlarsiz foydalana olishlari uchun **institutsional takomillashtirish** lozimligini bildirdi.

Hozirgi vaqtda Koreya turizm startaplari **turar joy, transport, madaniy tajriba, faoliyat turlari, mintaqaviy mahsulotlar** kabi yoʻnalishlarda ixtisoslashgan xizmatlar orqali yangi bozor segmentlarini oʻzlashtirmoqda. Masalan:

“**Excrew**” — mahalliy va xorijiy sayohatchilar uchun ijtimoiy tarmoqlarga asoslangan faollik platformasi;

“**Xizmat platformasi**” — xorijliklarga soliqni onlayn qaytarish xizmatini taklif qiladi;

“**One Million**” — koreys raqsiga asoslangan madaniy tajriba maydonini yaratgan;

“**Date Trip**” — mintaqaviy turizmni rivojlantirish uchun “mahalliy kuratorlik xizmatlari”ni amalga oshirmoqda.

Ularning umumiy strategiyasi koreys turizm kontentini **global maydonga olib chiqish** va **xalqaro sayyohlar talabiga moslashtirish**dir. Bu esa nafaqat xizmat eksportini oshiradi, balki Koreyaning xalqaro turizm brendini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Koreya turizm tashkiloti “Visit Korea” (ajunews.com, n.d.) integratsiyalashgan Koreya sayyohlik platformasini boshqaradi. Visit Korea sakkiz tilda, jumladan, ingliz, yapon, xitoy (soddalashtirilgan va anʼanaviy), ispan, frantsuz, nemis va rus tillarida faoliyat yuritadi va xorijlik sayyohlarga Koreyadagi asosiy sayyohlik yoʻnalishlari, oziq-ovqat, turar joy va tajriba tadbirlarini oʻrganishga va oʻz marshrutlarini rejalashtirishga yordam beradi. 2024 yil holatiga koʻra, Visit Koreyaning umumiy aʼzolar soni 115 080 tani tashkil qiladi.

Janubiy Koreya sayyohlik tashkiloti muvaqqat prezidenti Seo Yon Choong tomonidan oʻtkazilgan Seuldaagi matbuot anjumanida taʼkidlanishicha, soʻnggi davrda Koreya turizm sektori bir qator murakkab muammolar bilan yuzlashmoqda. Xususan, sayohat xavfsizligiga oid muammolar, yirik kiruvchi bozorlar, jumladan, iqtisodiy qiyinchiliklar va tezkor oʻzgaruvchan ichki hamda xalqaro ijtimoiy-siyosiy holatlar sektorga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, mustaqil sayohatga boʻlgan talabning ortishi hamda koreys madaniyatining global miqyosda keng tarqalishi kabi salbiy omillarga qarshi imkoniyatlar ham mavjud.

Janubiy Koreya sayyohlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “SPEKTRUM” (“SPEKTRUM” strategiyasi – bu turizmni rivojlantirish yoki marketing faoliyatlarida qoʻllaniladigan muqobil strategik yondashuv boʻlib, har bir harf alohida strategik yoʻnalishni bildiradi.) strategiyasi asosida sakkizta asosiy loyiha amalga oshiriladi. Ushbu loyiha Janubiy Koreyaning kirish va ichki turizm tendensiyalarini aks ettiruvchi quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi: barqaror mintaqaviy turizm, uy hayvonlari uchun qulay turizm imkoniyatlari, koreys toʻlqin madaniyati sanoatining rivojlanishi, pazandachilik va gurma (Gurma sayohatlari (yoki gastronomik turizm) – bu sayohatchilarning boshqa mamlakatlar yoki hududlarga tashrifi asosan mahalliy oshxonani tatib koʻrish, anʼanaviy taomlar bilan tanishish, va ovqat tayyorlash madaniyatini oʻrganish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat turidir.) sayohatlari, sunʼiy intellekt texnologiyalariga asoslangan innovatsiyalar, sogʻlomlashtirish va shifobaxsh sayohatlar, raqamli transformatsiya va mahalliy tajribalarni mazmunli taqdim etish. 2024 yil uchun sayyohlar sonini 18,5 millionga yetkazish maqsadi, “SPEKTRUM” strategiyasi asosida barqaror va innovatsion turizmni rivojlantirish. K-pop va madaniyat markazlarida faoliyatni kengaytirish, yangi vizasiz siyosat, raqamli transformatsiya. 2024-2025 yillarda turizmni ragʻbatlantirish uchun yangi hududlar (masalan, “Gʻelon”. Gʻelon qishlogʻi – Oʻzbekistonning Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanida joylashgan, togʻli hududda joylashgan mashhur ekoturizm manzillaridan biri. Gʻelon soʻlim tabiat, toza havo va anʼanaviy

hayot tarzi bilan e'tiborga loyiq joy hisoblanadi. U yerda mehmon uylari, piyoda yurish marshrutlari va mahalliy milliy taomlar orqali ekoturizm rivojlangan.), investitsiyalarni jalb qilish, ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish, yangi xalqaro marketing strategiyalari.

Shuningdek, Janubiy Koreya sayyohlik tashkiloti dunyoning 20 dan ortiq shahrida shoular o'tkazish orqali strategik marketing kampaniyasini amalga oshirmoqda. Ushbu tadbirlarning yarmidan ko'pi 2024-yilning birinchi yarmida rejalashtirilgan. Tashkilot koreys madaniyatining jahon miqyosidagi keng tarqalishidan foydalanib, Seul tashqarisidagi shahar va mintaqalarda K-pop konsertlari hamda madaniy tadbirlar tashkil etishda munitsipalitetlar (Munitsipalitetlar — bu ma'lum hudud yoki aholi punktini o'zini o'zi boshqarish asosida faoliyat yuritadigan mahalliy boshqaruv organlari tizimi bo'lib, odatda shaharcha, tuman, qishloq yoki shahar hokimiyatini anglatadi.) va turizm tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

2024-yil noyabr oyida yangilangan vizasiz rejimga muvofiq, Koreya fuqarolari 2025-yil 31-dekabr gacha Xitoyga 15 kungacha vizasiz tashrif buyurishlari mumkin bo'ladi. Shunga javoban, Koreya hukumati xitoylik sayyohlar uchun mamlakatga vizasiz kirishni kengaytirish masalasini faol ko'rib chiqib, hozirgi kunga kelib xitoylik sayyohlar faqat Cheju orolida 30 kungacha vizasiz qolish huquqiga ega hisoblanadilar.

O'zbekiston va Janubiy Koreya mamlakatlari o'rtasida turizm infratuzilmasining rivojlanishida o'xshashliklar va farqlar mavjud. Ikkala davlat ham turizmni iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish vositasi sifatida ko'rib, infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ammo Janubiy Koreya ilgari surayotgan K-madaniyat va "wellness" (Wellness turizm — sayohatchilar sog'lomlashtirish maqsadida boradigan safar turi (masalan: issiq buloqlar, balneologik kurortlar, yoga retreatlar) kabi mavzuli sayohatlar O'zbekistonda hali keng tarqalgan emas. Shuningdek, Koreya xorijiy sayyohlarni jalb qilishda yuqori texnologiyalar va marketing strategiyalaridan faol foydalanmoqda.

O'zbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirishda Janubiy Koreyaning tajribasini o'rganish va uning muvaffaqiyatli jihatlarini joriy etish zarur. Bu, o'z navbatida, turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishga, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga va xalqaro miqyosda O'zbekistonning imidjini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston va Janubiy Koreya misolida turizm infratuzilmasining rivojlanishiga oid o'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy va raqobatbardosh turizm sohasini shakllantirishda tizimli yondashuv, texnologik innovatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va ekologik barqarorlik muhim omil hisoblanadi. Janubiy Koreya tajribasi asosida olib borilgan tahlillar, bu mamlakatda turizmni rivojlantirishda yuqori texnologiyalarni keng joriy etish, ixtisoslashtirilgan hududiy klasterlar tashkil etish, ekotizimga mos infratuzilmalarni barpo qilish, shuningdek, xorijiy sayyohlar uchun raqamli xizmatlar qulayligini ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar O'zbekiston sharoitida ham muhim amaliy ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O'zbekiston turizm infratuzilmasida mavjud salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish, Koreya tajribasida sinovdan o'tgan mexanizmlar, xususan "aqli turizm" texnologiyalari, barqaror rivojlanishga qaratilgan yashil infratuzilmalar va davlat-xususiy sheriklik modellari asosida amalga oshirilsa, bu sohada sezilarli ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, Prezident farmon va qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar, xususan kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, rekreatsion zonalarini rivojlantirish va raqamli xizmatlar joriy etilishi O'zbekiston turizm sektorining transformatsiyasi uchun zamin yaratmoqda.

Koreya tajribasining muvaffaqiyatli jihatlarini O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish orqali milliy turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, turistik xizmatlar sifatini oshirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va xalqaro turizm bozori talablariga mos innovatsion yechimlarni joriy etish mumkin. Xususan, SPEKTRUM strategiyasi doirasidagi kompleks

yondashuvlar O'zbekiston uchun ham yo'naltiruvchi metodologiya sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonning turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mavjud imkoniyatlarni samarali ishlatish va xalqaro tajribalardan oqilona foydalanish orqali yanada takomillashtirilishi lozim. Bu esa mamlakatning jahon turizm xaritasidagi raqobatbardoshligini mustahkamlab, iqtisodiy va madaniy barqarorlikka xizmat qiladi.

Takliflar

1.Davlat-xususiy sheriklik va investitsiya muhitini yaxshilash.

O'zbekiston "O'zbekiston-2030" strategiyasida infratuzilma loyihalarini xususiy sektor bilan hamkorlikda amalga oshirishni rag'batlantirish vazifalarini belgilagan. Janubiy Koreyada 3P (public-private partnership) modelida real loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgani, risklarni ochiq-taqsimlash va shaffof tender jarayonlari investorlarni jalb qilishda muhim ekanligi amalda ko'rsatildi. Shu asosda, birinchi bosqichda vazirliklar va xalqaro ekspertlar bilan birgalikda 3p modeli yo'l xaritasi ishlab chiqilishi lozim: risk-taqsimlash modeli va kafolat mexanizmlari (soliq imtiyozlari, kompensatsiya shartlari) aniq belgilanadi. Ikkinchi bosqichda "G'elon" kabi yirik zonasida xususiy sektor ishtirokida pilot loyiha yuritilib, kelajakda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi klasterlarda ham shartnoma-hujjatlar asosida **davlat-xususiy sheriklik** loyihalarini boshlanishi kerak. Investorlarni rag'batlantirish uchun soliq, yer to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, grant va venchur fondlari tashkil etilishi, murabbiylik va akselerator dasturlari yo'lga qo'yilishi muhim. Misol uchun, startaplarga Koreya tajribasida bo'lgani kabi dastlabki 3 yil ichida moliyaviy va texnik yordam ko'rsatuvchi dastur tuzish mumkin.

2."Aqlli turizm" va raqamli infratuzilma.

Janubiy Koreyada virtual gidlar, AI tavsiyalari va ko'p tilli mobil ilovalar orqali sayyohlar tajribasi sezilarli darajada oshirilmoqda. O'zbekiston "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida turizm sohasida ham interaktiv platforma va mobil ilova yaratishi maqsadga muvofiq. Buning uchun avvalo texnik topshiriq va arxitektura loyihasi tuzilib, ko'p tilli integratsiyalashgan portal hamda mobil ilova bosqichma-bosqich ishlab chiqilishi lozim. Bu platformada mahalliy obyektlar ma'lumotlari, onlayn bronlash, raqamli xarita va AI asosidagi marshrut takliflari bo'lishi kerak. Shu bilan birga, mahalliy navigatsiya ma'lumotlari global servislar bilan uzviy almashinuvi va real vaqtda yangilanish mexanizmlari tashkil etilishi lozim. Raqamli infratuzilma uchun turizm qo'mitasi va xususiy startaplar birgalikda ma'lumot platformasi yaratib, sayyoh oqimlari va xulq-atvorini tahlil qiluvchi data-analitika vositalarini joriy etishi muhim

3.Ekologik barqarorlik va yashil infratuzilma.

Janubiy Koreyada mehmonxonalar va turistik zonalar ekologik sertifikatlar asosida faoliyat olib boradi, qayta tiklanadigan energiya manbalari va chiqindilarni boshqarish tizimlari keng joriy etilgan. O'zbekistonda ekoturizm salohiyati katta bo'lsa-da, yagona ekologik standart va nazorat mexanizmi to'liq shakllanmagan. Shu bois, birinchi bosqichda xalqaro tajribalar tahlili asosida milliy ekologik sertifikatlash modelini loyihalash kerak. Keyingi bosqichda pilot hududlarda (masalan, tog'li sanatoriyalar yoki "G'elon" kabi yangi zonalar) sertifikatlash va monitoring joriy etilib, qayta tiklanadigan energiya va chiqindilarni qayta ishlash muhitini rag'batlantiruvchi subsidiya va imtiyozlar mexanizmi ishlab chiqilishi lozim. Bu PPP va xususiy investorlarni jalb qilib, yashil infratuzilmani kengaytirishga xizmat qiladi.

4.Hududiy turizm klasterlari va mintaqaviy mahsulotlarni diversifikatsiya.

Koreyada har bir mintaqaga o'ziga xos yo'nalishda klasterlash orqali salohiyatni to'liq ishga soladi. O'zbekistonda Samarqand-Buxoro-Xiva kabi tarixiy meros klasterlari, Toshkent va atrofidagi zamonaviy shahar turizmi klasteri, tog'li hududlarda ekoturizm va wellness klasteri, chegaradosh mintaqalarda transchegaraviy marshrutlar klasterlari shakllantirilishi mumkin. Har bir klasterda mahalliy kontent globalashtirilib, raqamli marketing va ko'p tilli saytlar, ijtimoiy tarmoq kampaniyalari, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok, madaniy tadbirlar bilan birga

brend identifikatori yaratiladi. Klasterlar doirasida startaplarni jalb qilish (masalan, mahalliy kuratorlik va raqamli tajriba platformalari) ham amalga oshiriladi.

5. Turizm startaplari va innovatsion ekotizim.

Koreya misolida startaplar tijoratlashtirish fondlari, akselerator va murabbiylik dasturlari orqali rivojlanadi. O'zbekistonda ham turizm startaplari uchun maxsus grant va akselerator dasturi tashkil etilishi kerak. Boshlang'ich bosqichda ekotizim tahlili va asosiy muammolarni aniqlash, so'ng akselerator/inkubator dasturini ishga tushirish, xalqaro hamkorlikda pilot loyihalarni amalga oshirish bosqichlari rejalashtiriladi. Startaplarga ko'p tilli interfeys, xalqaro to'lov tizimlariga integratsiya bo'yicha texnik yordam, mahalliy tarmoq infratuzilmasini yaxshilash (API almashish, lokal data center) qo'llab-quvvatlanishi lozim. Misol xizmatlar: ijtimoiy faollik platformasi, soliqni onlayn qaytarish xizmati, madaniy tajriba maydonchasi va wellness tur paketlari platformasi kabi startaplar rag'batlantiriladi.

6. Vizalar siyosati va kirish qulayligini oshirish.

Janubiy Koreya 2025 yilda Xitoy fuqarolari uchun vizasiz rejimni kengaytirishni rejalashtirayotgani kabi, O'zbekiston ham maqsadli bozorlar (Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya) uchun vizani soddalashtirish yoki e-viza joriy etishni faol ko'rib chiqishi kerak. Bunda xalqaro aeroportlarda "tax-free" tizimi, qulay transport integratsiyasi (smart check-in, ekspress poyezd, onlayn bronlash) tashrifchilar uchun qo'shimcha rag'bat yaratadi.

7. Moliyalashtirish va monitoring.

Har bir loyiha uchun capex va opex asosida moliyalashtirish rejasi tuzilib, PPP, xususiy investitsiya va xalqaro donor institutsiyalari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) orqali mablag' jalb qilinishi nazarda tutiladi. Monitoring uchun SPEKTRUM va boshqa strategiyalardagi KPI modellari asosida sayyohlar oqimi, raqamli platforma foydalanuvchilari, ekologik sertifikatlangan obyektlar, startaplar investitsiya hajmi, vizalar jarayoni davomiyligi kabi indikatorlar ishlab chiqiladi. Turizm qo'mitasi rahbarligida komissiya tuzilib, choraklik va yillik hisobotlar bilan baholash amalga oshiriladi. Raqamli dashboard orqali real vaqtda ma'lumot yig'ish mexanizmi joriy etilishi maqsadga muvofiq

8. Xalqaro hamkorlik va bilim almashinuvi.

Janubiy Koreya bilan qo'shma tajriba almashish dasturlari, ekspert missiyalari, o'quv seminarlar tashkil etilishi lozim. Mentorlik va akseleratorlarda Koreya ekspertlari ishtirok etishi, qo'shma marketing kampaniyalari (madaniy tadbirlar, K-pop uslubidagi eventlar) orqali O'zbekiston turizm mahsulotlari xalqaro auditoriyaga taqdim qilinadi. Shu bilan birga Jahon banki va ADB kabi institutlar bilan turizm klasterlari uchun grant va kredit olish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim.

9. Ta'lim va kadrlar tayyorlash.

Universitet va kasb-hunar kollejlarda "Aqlli turizm", "Sustainable tourism management", "Turizm startaplari" kabi o'quv dasturlari joriy etilishi, stajirovkalar va mehnat almashinuvi orqali koreys tajribasini o'qitish zarur. Raqamli texnologiyalar, ekologik boshqaruv va xizmat sifati bo'yicha xalqaro sertifikatlashtirish (ISO, Green Key) markazlari tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Amalga oshirish bosqichlari

➤ *Qisqa muddat (6–12 oy):* PPP yo'l xaritasi, raqamli platforma talabnomalari, ekologik sertifikatlash loyihasi, startap akselerator dasturi rejasini ishlab chiqish.

➤ *O'rta muddat (12–36 oy):* Ko'p tilli portal va mobil ilova ishlab chiqish, DXXSh pilot loyihalarini joriy etish, navigatsiya ma'lumotlarini global servislarga integratsiya qilish, ekologik sertifikatlash pilot hududlarda, startap fondlari va vizalar siyosatini soddalashtirish bo'yicha tashqi muzokaralar.

➤ *Uzoq muddat (36–60 oy):* Platformani kengaytirish, klaster loyihalarini ko'lamini oshirish, ekologik infratuzilma monitoringini mustahkamlash, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Bu takliflar matni O'zbekiston sharoitida Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, milliy strategiya va "Raqamli O'zbekiston-2030", Prezident farmonlari asosidagi chora-tadbirlar bilan uyg'un yuritilishi mumkin. Ularning amalga oshirilishi turizm infratuzilmasining barqarorligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sishga xizmat qilishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- All My Tour (2024). *CEO Seok Yeong-gyu's statement on digital map limitations in South Korea*. Seoul: All My Tour Press Center.
- Asian Development Bank (2024). "Advancing digital platforms for tourism SMEs in Uzbekistan" – tahliliy hisobot.
- Asian Development Bank (2024). "Advancing Uzbekistan's Sustainable Development via PPP Road Projects" (14 October 2024). [development.asia](https://www.adb.org).
- Bramwell, B. va Lane, B. (2011). Sustainable tourism: An evolving global approach. *Journal of Sustainable Tourism*, 19(3), 1–17.
- Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). "Smart Tourism Destinations Enhancing Tourism Experience Through Personalisation of Services". Springer.
- CAREC Program (2024). "CAREC Visa Facilitation Study: Preliminary Findings". carecprogram.org.
- CAREC Program (2024). "Visa Facilitation Study". carecprogram.org.
- Global Sustainable Tourism Council (GSTC). (n.d.). "GSTC Criteria for Sustainable Tourism".
- Ibragimov, N. S. (2022). Sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining raqamli transformatsiyasi. Buxoro: "Durdona" nashriyoti.
- International Journal of Economics, Finance and Management. (2024). Mirzaev, A., & Tursunov, S. "Implementing Public-Private Partnership Models in the Development of the Tourism Sector in Uzbekistan".
- Jahon banki / UNWTO. (2023). *Tourism Doing Business – Investing in Uzbekistan*.
- Jahon banki / World Bank. (2024). *Public-Private Partnerships in Infrastructure: Lessons from Emerging Economies*.
- Karimov, U. (2021). O'zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishining dolzarb masalalari. *Turizm iqtisodiyoti jurnali*, 2(4), 45–52.
- Korea Culture and Tourism Institute (2023). *Tourism Policy and Strategy Report*. Seoul.
- Korea Tourism Organization (2024). *Strategic Roadmap for Sustainable Tourism Startups*. Seoul: KTO Official Publication.
- Busan Metropolitan City (2024). *Tourism Startup Fund and Global Expansion Support Initiatives*. Busan: Busan City Hall Reports.
- Li, X., et al. (2023). "The conceptualization of smart tourism service platforms on tourist value co-creation behaviours". *Nature Humanities and Social Sciences Communications*.
- Mahmudov, Sh. (2020). Turizm sohasida davlat siyosati va infratuzilma rivoji. *TDIU ilmiy axborotnomasi*, 3(1), 35–41.
- Mirzaev, A., & Tursunov, S. (2024). "Implementing Public-Private Partnership Models in the Development of the Tourism Sector in Uzbekistan". *IJEFM*, 8(2).
- OECD (2019). *The Missing Entrepreneurs: Policies for Inclusive Entrepreneurship*.
- Qaror (2019). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror. PQ-5611-son, 5-yanvar.
- R&One Company Press Release (2025). *Statement by CEO Kwon Yong-geun on tourism startup reform strategies*. Seoul: R&One Media Office.
- Tribe, J. (2016). *The Economics of Recreation, Leisure and Tourism* (5th ed.). Routledge.